

QISSADA MIFOPOETIK TALQIN VA USLUB DINAMIKASI

Raxmatullayev Ziyodullo Xabibullayevich,
Alfraganus universiteti tadqiqotchisi,

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18666442>

Annotatsiya. Mazkur maqolada qissa janrida mifopoetik talqin va uslub dinamikasining namoyon bo'lish xususiyatlari Nazar Eshonqulning "Tun panjaralari" qissasi misolida tahlil qilinadi. Asarda inson ruhiyati, ichki "men" va tashqi borliq o'rtasidagi ziddiyatlar ramziy-majoziy tasvir vositalari orqali ochib berilishi yoritiladi. XX asr Yevropa va rus adabiyotidagi modernistik izlanishlar, xususan, F.Kafka, J.Joys, A.Kamyu ijodiga xos psixologik talqin va mifologik qatlamlarning o'zbek nasriga ta'siri masalasi ham ko'rib chiqiladi. Qissada tun obrazi, Shayton timsoli, tush motivi kabi mifopoetik unsurlar kompozision yaxlitlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, badiiy portretning statik va dinamik ko'rinishlari, ichki monolog va ong oqimi elementlarining uslubiy vazifasi ochib beriladi. Maqolada mifologik tafakkur va zamonaviy ruhiy tahlil uyg'unligi qissa poetikasining asosiy xususiyati sifatida baholanadi.

Kalit so'z: uslub, talqin, idrok, dinamik o'sish, ifoda, tanlov.

Annotation. This article analyzes the features of the manifestation of mythopoetic interpretation and style dynamics in the short story genre using the example of Nazar Eshonkul's story "The Night Bars". The work highlights the disclosure of the contradictions between the human psyche, the inner "I" and external existence through symbolic and figurative means of imagery. The issue of the influence of modernist research in 20th-century European and Russian literature, in particular, the psychological interpretation and mythological layers inherent in the works of F. Kafka, J. Joyce, A. Camus on Uzbek prose is also considered. In the short story, mythopoetic elements such as the image of the night, the image of Satan, and the dream motif are interpreted as an important factor ensuring the integrity of the composition. The stylistic function of the static and dynamic manifestations of the artistic portrait, the internal monologue and the stream of consciousness elements is also revealed. The article evaluates the harmony of mythological thought and modern psychological analysis as the main feature of the poetics of the story.

Keywords: style, interpretation, perception, dynamic growth, expression, choice.

Аннотация. В данной статье анализируются особенности проявления мифопоэтической интерпретации и динамики стиля в жанре короткого рассказа на примере рассказа Назара Эшонкуля «Ночные залы». Работа подчеркивает раскрытие противоречий между человеческой психикой, внутренним «я» и внешним существованием посредством символических и образных средств. Также рассматривается вопрос влияния модернистских исследований на европейскую и русскую литературу XX века, в частности, психологической интерпретации и мифологических пластов, присущих произведениям Ф. Кафки, Ж. Джойса, А. Камю, на узбекскую прозу. В коротком рассказе мифопоэтические элементы, такие как образ ночи, образ Сатаны и мотив сновидения, интерпретируются как важный фактор, обеспечивающий целостность композиции. В статье также раскрывается стилистическая функция статических и динамических проявлений художественного портрета, элементов внутреннего монолога и потока сознания. Оценивается гармония мифологической мысли и современного психологического анализа как главная особенность поэтики повествования.

Ключевые слова: стиль, интерпретация, восприятие, динамическое развитие, выражение, выбор.

Kirish. Ma'lumki, shiddat bilan rivojlanayotgan har bir soha badiiy adabiyot oldiga ham ko'plab murakkab savollarni qo'ya boshlagan bir paytda, Vatanimiz o'z mustaqilligi

sari dadil qadamlar bilan kirib bormoqda edi. Chunki sobiq ittifoqning tanazzul yoqasiga kelib qolishi kundek ayon edi. Bular nasrda ham, nazmda ham teng miqyosda ko'zga tashlanardi. Shunday vaziyatda hayotning butun murakkabligini tasvirlovchi syujet va kompozision yaxlitlik sintezi hamisha yozuvchidan katta iste'dod va me'natni talab qiladi. Chunki fabula – hali ishlanmagan voqelikni yozuvchi o'z quvvai hofizasi, idroki va tafakkuri, ongli tushunchasi negizida tartiblashtiradi. Bu unsurlarning barchasi kompozision yaxlitlikda yanada namoyon bo'lib, inson ruhiyatini “kashf qilish”ga qaratiladi. Insonning botinida “yashayotan” “men” bilan tashqi, ya'ni zohiriy “men” orasida juda katta tafovut mavjud. Shuni e'tiborga oladigan bo'lsak, joriy kundagi talqin modusida kompozision unsurlar dikamikasi o'ziga xos halqani tashkil qiladi. Negaki, inson mohiyat farzandi! O'z mohiyatini, mavjudligini anglash va anglatish hammaning ham qo'lidan keladigan ish emas. XX asrning tong otarida Yevropa va rus adabiyotida insonni taftish, tahlil qilish borasida yangi-yangi izmlar paydo bo'ldi. Bu “izm”larning juda ko'pchiligida ramzlar va metaforalar aralashuvi, ya'ni snkretik qorishuvi kuzatildi. Bunday tasvir usullari yozuvchilarga katta imkoniyatlar berish bilan bir qatorda muayyan anglashilmovchiliklarni ham yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Jeyms Joys badiiy olamida bunday vaziyatlar yozuvchining o'zi yashab turgan davridayoq yaqqol ko'zga tashlanadi. Yozuvchi har bir asarida noreal – ramzlar tilida voqelikni idroklash yo'lidan boradi. Masalan, “Musavvirning yoshlikdagi shamoyili”, “Ullis” asarlarida qahramonlar A nuqtadan B nuqtaga harakatlanar ekan, o'zlari anglamsiz olamda boshqalarni ham shu yo'sinda yashash lozimligini tushuntiradi. Biroq qahramonlari tafakkur sohiblaridir. “Biz shunday bir muhitda yashaganmizki”, – deydi Jeyms Joys – aytishga til ojizlik qiladi. Biz janatda yashash uchun yaratilgan edik, jannat bizga xizmat qilishi uchun yaratilgan edi. Biz nima uchun yaratilganimiz o'zgartirildi; lekin jannatning yaratilishiga nima sabab bo'lganligi haqida lom-mim deyilmaydi”. [1.255] Haqiqatdan ham, Kafka, Kamyu, J.Joys talqinlarida ramziy-majoziy kompozision birliklar sistemasi XX asrning 90-yillarida Nazar Eshonqul badiiy izlanishlarida nihoyatda tub burilish yasashga keng zamin hozirladi. San'at – shunisi bilan qiziqarli bo'ldiki, Jeyms Joys badiiy olamining serqirraligi, tushuniksiz bir kayfiyatda o'quvchini o'ziga rom qila olish qobiliyati borligi hozirgacha zamonaviy o'quvchini, texnologik dunyoda yashayotgan kitobxonni o'ziga jalb qilib kelishda davom etmoqda.

Ma'lumki, badiiy asar kompozisiyasi, u qanday shaklda yaratilganidan qat'iy nazar, davrning ma'lum bir stretiplarini yangilashga xizmat qiladi. Xoh u an'anaviy, xoh u noan'anaviy bo'ladimi, ma'lum bir tuzilishni o'zida namoyon qilishga yo'naltiriladi. Shuni qayd etish lozimki, badiiy kompozisiya o'z-o'zidan yaratilmaydi. Uning qayta ishlov berilishi, tartibli butunlikka uyg'unlashuvidan paydo bo'ladi. Matn – o'zgaruvchanligi va yozuvchi voqelikka munosabatida ham ko'zga tashlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Mifopoetik talqin va uslub dinamikasini o'rganishda adabiyotshunoslikda shakllangan nazariy qarashlar muhim metodologik asos vazifasini

bajaradi. D.Quronov va hammualliflar tomonidan yaratilgan “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da badiiy kompozisiya, portret, syujet kabi tushunchalarning izohlanishi qissa poetikasini tahlil qilishda nazariy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, portretning statik va dinamik shakllari haqidagi qarashlar Nazar Eshonqul asarlaridagi obraz yaratish usullarini anglashda muhimdir. [3]

M.Qo‘chqorovanning “Hozirgi o‘zbek nasrida badiiy shartlilik” mavzusidagi tadqiqoti zamonaviy nasrda ramziy-majoziy ifoda, shartlilik va metaforik tafakkurning o‘rnini belgilab beradi. Unda N.Eshonqul ijodi alohida e’tirof etilib, yozuvchining ruhiy qatlamlarni ochishdagi lirik-kechinmali uslubi tahlil qilinadi. Bu qarashlar qissadagi mifologik obrazlar va shartli tasvirning mazmuniy yukini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. [2]

J.Eshonqulovning folklor va mifologik obraz talqini haqidagi ilmiy izlanishlarida mifning zamonaviy adabiyotdagi transformatsiyasi masalasi yoritiladi. Unga ko‘ra, mifologik tafakkur insonni makon va zamon yaxlitligida anglash imkonini beradi. Bu nazariy qarashlar “Tun panjaralari” qissasidagi Shayton obrazi, tush motivi va tun ramzini talqin qilishda dolzarbdir. [5]

Rus adabiyotshunosligida V.V.Vinogradov, V.F.Kozmin va L.Timofeyev kabi olimlar muallif obrazi, uslub va poetika muammolarini chuqur tadqiq etganlar. Ularning muallif va roviy munosabati, uslub individualligi haqidagi fikrlari N.Eshonqul qissasida muallif ongining badiiy struktura bilan uyg‘unlashuvini izohlashga yordam beradi. [8., 9., 10.]

Shuningdek, F.Kafka, J.Joys kabi modernist yozuvchilarning asarlari o‘zbek nasriga bilvosita ta’sir ko‘rsatgani kuzatiladi. Ularning psixologik tahlil, ong oqimi, ramziy kompozisiya tamoyillari Nazar Eshonqul ijodida milliy mentalitet bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot zamonaviy o‘zbek qissachiligini jahon adabiy jarayoni kontekstida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Metodologiya

Mazkur maqolada qissada mifopoetik talqin va uslub dinamikasini yoritishda kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-adabiy tahlil, strukturaviy-kompozision tahlil hamda badiiy-psixologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Nazar Eshonqulning “Tun panjaralari” qissasi matni asosiy manba sifatida o‘rganilib, undagi ramziy obrazlar (tun, Shayton, tush motivi) mifopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilindi.

Shuningdek, XX asr Yevropa va rus modernistik adabiyoti namunalari bilan qiyoslash orqali uslubiy o‘xshash va farqli jihatlar aniqlashtirildi. Kompozisiya, portret (statik va dinamik), ichki monolog kabi poetik unsurlar struktur-semantik jihatdan tahlil etildi. Tadqiqotda adabiyotshunoslik nazariyasiga oid manbalar metodologik asos sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari. Inson har qanday tafakkurni bir emas, ikki emas, turli xil qatlamlardan oladi. Tun – insonning osuda fazosi. Unda juda ko‘p bilimlar, o‘y-xayollar,

iztiroblar, qayg'ular o'z in'kosini topadi. Yozuvchi Nazar Eshonqul "Tun panjaralari" qissasida ayni shu jihatlarga to'xtalar ekan, mohiyatga, Odam Ato va Momo Havoning yaralishiga, Shayton izmiga kirib Jannatdan quvilishiga katta ishora qiladi. Qissaning o'nlab o'rinlarida Shayton obrazi asar qahramoni bilan birga yashaydi. Shayton – kuzatuvchi obraz. U hammani diqqat bilan kuzatadi. Tunning asar kompozitsiyasida alohida mavqe tutishida ham ma'lum fragmentlar mavjud. Masalan, bu haqda so'z borganda prof.M.Qo'chqorovanning quyidagi mulohazalari yodimizga tushadi: "N.Eshonqulning "Tun panjaralari" qissasiga to'talamiz. Adib Sh.Bo'tayevdan farqli ravishda qissani xalqona uslubda yozmagan. Mazkur qissada qahramonning omadsizlik, alamzadalik, loqaydlik, faoliyatsizlik, xudbinlik, jaholatga botgan, o'z qobig'iga o'ralashib qolgan ruhiyat qatlamlarini yozuvchi metaforik (ramziy-majoziy), lirik-kechinmali uslubda hikoya etadi. Qissa ichki monolog asosiga qurilgan. N.Eshonqulning tasvir uslubi ko'proq avstriyalik yozuvchi F.Kafka ifodasini esga tushiradi. Qahramon sevgi va do'stlikda hech omadi yurishmay, ishsiz, bekorchi almoysi-jalmoysi xayollar surib o'tkazgan tunlarning birida Shayton bilan do'stlashadi. Bizningcha, N.Eshonqul "Tun panjaralari" qissasida bir qahramonning alamzadalik, omadsizlik, faoliyatsizlik, xudbinlik, loqaydlik girdobiga tushib qolishini ramziy ma'noda jamiyat, ijtimoiy shart-sharoit vujudga keltirgan ayni shunday ruhsizlikka ishora tarzida ramziy-majoziy asar bitadi". [2.158-159] Ko'rinadiki, asarda Shayton obrazini o'ziga xos tarzda chizib, qahramonning adashishlarining bosh mezoni sifatida aniqlab bormoqda. Jamiyatdagi har qanday shaxsning omadsizligi va uning qurboniga aylanishi insonni ruhan mayib qilib, hayotini izdan chiqarishgacha borishi mumkinligiga ishora mavjud. Qissada bosh qahramon ba'zan Roibyani qo'msaydi, ba'zan bosh olib bir tomonlarga ketib qolgisi keladi, ba'zan yolg'izlikni xush ko'radi. Neagki, u jamiyatda odamlar bilan yashasa baxtsiz bo'lib qolishdan juda-juda hadiksiraydi. Mana shu yerda SHAXSning ruhiy parchalanishi boshlanadi. Ruhiy parchalanish boshlangan joyda – faoliyatsizlik, loqaydlik, mazmunsiz hayot nashidasi boshlanib, insonni yo'ldan chiqarib yuborishgacha boradi. Bunday paytda davrning har qanday kuchli yozuvchisi ham siyosat va adabiyotning uyg'unligini tasvirlashda ikkilanishi mumkin.

Har qanday badiiy asarda xarakter, ramz va obrazlilikni ta'minlashda, syujet va kompozitsiyani mustahkamlashda badiiy psixologizmning o'rni nihoyatda kengdir. XX asr psixonalitika fani boshqa, yondosh sohalar kabi juda tez suratlarda rivojlandi. Birinchi jahon urushi va undan keyingi davrlar adabiy hodisasi sifatida tan olingan J.Joys, A.Kamyu, M.Prust, E.Xeminguey singari jahon klassik yozuvchilari ana shu tamoyilga amal qilib, inson ruhiyatining nechog'li murakkab, ko'p qirrali ekanligini o'zlari yaratgan asarlari bilan falsafiy-psixologik talqinda qayta idrok etishga erishdilar. Shuni qayd etish lozimki, mana shu adiblarning har biri yaratgan asarlar o'zbek adabiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgani ayni haqiqatdir. Insoniyat yetib kelgan manzilu makonlar, ularning zabt etgan cho'qqilari, taqdir ajoyibotlari-yu, iztiroblari hamisha o'sha talqinni idrok etishga

jazm qilgan yozuvchilar asarlarida unitilmas obida bo‘lib qoldi. Shunday ekan, o‘zining bir-biridan go‘zal asarlari bilan shuhrat qozongan N.Eshonqul poetikasida badiiy psixologizm alohida o‘rin egallaydi.

Adabiyotshunoslik lug‘atida badiiy kompozisiyaning bir turi portretning **statik** va **dinamik** ko‘rinishi haqida so‘z boradi. “Statik deyilishiga sabab shuki, P.ning bu navida personajning tashqi qiyofasi syujet voqeasi to‘xtatilgan holda ancha mufassal, detallashtirib chiziladi. Odatda, bunday P.lar personaj asar voqeligiga ilk bor kirib kelgan pallada (mas., “Kecha”dagi Razzoq so‘pi P.i) beriladi. Dinamik P.deganda esa mufassal tasvir emas, balki voqea va dialoglar tasvirida, ya’ni harakat davomida berib boriluvchi personaj tashqi ko‘rinishiga xos ayrim detallar nazarda tutiladi... Demak, P.ning qanday va qay darajada chizilishi belgisi emas, bunda asosiy mezon P. (yoki P.detallari)ning inson obrazini o‘quvchi tasavvur eta oladigan darajada to‘laqonli yaratish uchun yetarli bo‘lishidir”. [3.226-227] Darhaqiqat, ramziy-majoziy, metaforik talqin qilingan asarlarda badiiy portret o‘ziga xos tarzda – mavhum talqinni ko‘z o‘ngimizda gavdalandiradi. Nazar Eshonqulning “Tun panjaralari” qissasida – *tun portreti* o‘ziga xos modifikasion fragmentga keng yo‘l ochadi:

“Mana tun. Tunda mening boshqalarnikiga o‘xshamaydigan umrim boshlandi. Tunda men kunlarim va kelajagim bilan uchrashaman: ular xuddi so‘nayotgan yuduzlarday ko‘z oldimdan bir-bir uchib o‘tadi.

Deraza yonida qurbaqa qurilladi, uning nag‘masidan bexos cho‘chib tushdim, so‘ng qurilloq sekin so‘ndi va nargi binoning yuqori qavatlarida qandaydir bola chinqirab yig‘lab yubordi. Izidan ayol kishining zardali avozi eshitildi. Bola esa allamahalgacha o‘ksib-o‘ksib yig‘lab yotdi. Shunda mening xayolimga – balki bola uzoqlarda, mening o‘tmishimga yig‘layotgandir – degan o‘y kelib qoldi. Kim biladi, shunday bo‘lishi ham mumki-ku; bu azim tun qo‘ynida o‘ksib-o‘ksib yig‘layotgan mening bolalaigimdir? Balki hech qachon tunganmas bir tun meni bolalik bilan yuzma-yuz qilmoqchi bo‘lganimdir. Agar shunday bo‘lgan taqdirda ham bolalik bilan mening hozirgi o‘ttiz bir yozim orasida juda katta jar bor. Bu jarlik mening, endi hech qachon yo‘qolmaydi. Men bolalik olmasining aynigan, buzilgan tomonidan. Olmani yeyishar ekan, odamlar hamisha chirigan joyini kesib tashlashadi. Agar endi men yana nimagadir yarashimni his qilganimda ham bu umr olmasining chirigan qismini kesib tashlashim kerak”. [4.163]

Mazkur lavhada yozuvchi tun bilan muloqotga kirishar ekan, turmushidan baxti kelishmagan inson ruhiyatining alamli va achchiq kartinasi ko‘z o‘ngingizda gavdalanadi. Tasavvur qiling, yozuvchi derazadan qaragan hamon qurbaqaning qurillashi va bolaning bexosdan chinqirab yig‘lashi haqida so‘z yuritir ekan, inson ruhiyatining, xotiralarining puchmoqlarida hukm surayotgan kayfiyatni baland pardalarda idroklamoqda. Asar qahramoni tundan najot kutadi. Tun uning borlig‘iga evriladi. Chirigan olmaga o‘xshatishlar, jamiyatning ichdan yemirilib, ado bo‘lgan xazonrezgisi kabi tovlanishlarini butun-murakkabligicha tasvirga oladi. Matnda birinchi bosh *qahramon portreti*, ikkinchi

ayol portreti uchinchi *jamiyat portreti* tasvirlanadi. Tasvirdagi qisqalik, siqqlik va obrazlilik yozuvchi poetik mahoratining o'ziga xosligini tayin etadi. Mazkur uchlik bir-biriga psixologik jihatdan bog'liq holda zuhur etiladi. Qahramonning baxtli bo'lishi uchun bitta imkon bor, xolos: uni anglash va his etish uchun yozuvchining o'zi olma chirigi kabi o'tmishidan voz kechishi judayam zarur. Bir-biriga bog'liq holda bo'layotgan voqelik qisa suratlarda o'quvchiga tushunarli bo'ladi. Asardagi ikkinchi portret Shayton bilan bog'liq holda ro'y beradi.

Nazar Eshonqulning ko'pchilik asarlarida Kafkaga ergashish orqali o'zining ruhoniyligini olamini "kashf" etganligining shohidi bo'lamiz. Kafka jamiyatning barcha qatlamlarini sintezlaydi. Nazar eshonqul sobiq ittifoqning qing'irliklarini o'z asarlarida ramzlar tili orqali "fosh" etadi. Tun – osudalik ramzi bo'lishi bilan bir qatorda, hasrat va ayriliq, azob va uqubat ramzi bo'lib ham yuzaga chiqadi. Prof. Q.Yo'ldoshev Frans Kafka shaxsiyati haqida shunday yozadi: "Kafka o'ta g'alati shaxsiyat egasi bo'lgan. G'oyat qobiliyatli Frans bolaligidan hech kimga o'xshamaydigan o'ziga xos tabiatga ega. Jismonan o'jiz, kasalmandroq bola juda ta'sirchan va asabiy bo'lib o'sdi. U hamma narsadan ko'ra ozodlikni sevar, lekin hech qachon erksevarligini ochiq namoyon etmas, ozodlikdan quvonib ketmasdi. Adib yolg'izlikni yaxshi ko'rib intilar, va ayni vaqtda, tanholikdan o'tdan qo'rqanday qo'rqardi. Frans onasini yaxshi ko'rar, lekin sira tushunolmasdi. Otasini o'zicha ayamoqni, ko'nglini olmoqchi bo'lar, ammo undan juda cho'chirdi. Yaratib bergan barcha imkoniyatlar uchun u otasi oldida o'zini qarzdor his qilar, shu bilan birga, o'zidagi tortinchoqlik, ikkilanuvchanlik va kuchiga ishonmaslikning sababchisi sifatida uni juda yomon ko'rardi. Kafka shaxsiyati qarama-qarshi tuyg'ular, xislatlar, qarashlarning uyumi bo'lgan deyish mumkin". [2.387] Haqiqatdan ham, F.Kafka bolaligi oson kechmagan. Bu har bir asarida turlicha obrazlarda namoyon bo'ladi. Masalan, "Jarayon"da Yozef K., "Evrilish"da Geogor zamza timsolida Kafkaning ruhiyati, Shaxsiyati, Holati va kayfiyati zuhur etilgan. Bunday iztirob egasi g'am-anduhdan – shodlikni, ozodlikni, mehnatsevarlikni, mehr-shafqatni yarata oldi. Kafkaning butun iztirob bilan boshlanib, fojea bilan yakun topgan asarlarida – mavhumotdan – yorg'uliy, samoviy bir ishqni, Allohni tanishni o'rganish mumkin degan xulosa qilsa bo'ladi. Nazar Eshonqul ayni shu kayfiyatni o'zining barcha asarlarida sinab ko'rdi. Uslub va shakl, janr va kompozisiya negizida yozuvchi o'z individual olamini yarata oldi. Mifologik talqin qamrovi insoniy bo'liqni to'ldirdi, undan modifikasion usul bilan tafakkur sarhadlarini yanada boyitdi. Bundan faqatgina quvonish zarur.

"Xotiram kemasidan allaqachon tushib qolgan, suvga tushgan shishadek uzoq-uzoqlarga oqib ketgan Robiya va uning jamalak sochi ba'zan yillar qa'ridan xotiram qo'zgisiga qalqib chiqadi. Biz bu bilan Ters ota soyiga qo'zi boqqani bordik. Soyda bizni hamisha qaroqchilar makonidek qo'rqinchli yulg'unzor kutib olardi. Men o'zimning keksa, to'satdan tajovuz qilib qoladigan, hurpayib olgan, egri, badpurish, nayzalarini ko'kka darg'azab tirab turgan yulg'unlardan qo'rqmasligimni isbotlash uchun uning ichiga

kirib olar va qanotli tulpor haqidagi ertagimni boshlardim. Garchi men, ko‘pincha, o‘zim to‘qisam ham, Robiya mening oqtulpor bilan qilgan sarguzashtlarimni hayrat bilan eshitar, chapak chalib, qiyqirab yuborar, menga esa bu yo‘qar, uni singan tishlar xunuk qo‘rsatib tursa ham, shunday paytlarda juda yoqimli bo‘lib qolardi. Men uni hamon mana shu holatda, mening yalmog‘izlar va ajdaholar ustidan qilgan g‘alabamdan quvonib, gulday yayrab turgan holatda tasavvur qilaman. Tushlarlarimga ham xuddi mening hozirgi hayotimdan kulayotgandek, bolalik kabi ma‘sum va beg‘ubor kulgulari kirib chiqadi”. [4.169]

Muhokama. Yozuvchi qissada qahramon tilidan o‘z mahbubi Robiyaga bo‘lgan pok muhabbati xususida hikoya qilarkan, bolalik fenomenini yodimizga soladi. Bolalikning qaytmas, sohir damlaridan ilhom olgan yozuvchi, Tersotaliklarning xarakterlariga xos olijanob fazilatlarini ham keltirib o‘tadi. Mana shu tamoyilga e‘tibor qilinsa, N.Eshonqul portretning *statik* shaklidan unumli foydalanadi. Ya‘ni qissada darajalanib borayotgan voqelik Robiyaning oydek ruxsorini, unga olib boruvchi manzillarning naqadar mashaqqatli ekanligini (yo‘lg‘unzor) yuzaga chiqaradi. Qissada folklor an‘analar ham ramzlarga qorishib ketgan. Adib kechagi kunidan bugunini, bugunidan ertasini farovon bo‘lishini istaydi. Afsuski, bunday vaziyatlarda qahramon ikkilanishlar orasida qoladi.

Qissada tush motivi ham uchraydiki, adib syujet qismlarini bir-biriga bog‘lash uchun undan unumli istifoda qiladi. Prof.J.Eshonqul bu haqda shunday yozadi: “XX asr adabiyotini kuzatar ekanmiz, Dostoyevskiyning “Odam jumboqdir” degan fikriga yaqinroq tarzda shartli qilib aytish mumkinki, “Insof – bu mif”. Bugungi adabiyotimizda paydo bo‘layotgan “O‘p‘qon”, “Jajman”, “Qora kitob”, “Qora kun”, “Ko‘k ko‘l”, “Chodir xayol”, “Qadimda bo‘lgan ekan” kabi asarlarida biz ana shu inson haqidagi mifga yaqinlashishni ko‘ramiz. Bu asarlardagi o‘zlaridan ilgarigi hikoyalardan A.Qahhor maktabidan farqli jihatlar, g‘ayri oddiyliklar, aql mantig‘iga zid biroq idrok va ruhiyat mantig‘ini to‘ldiruvchi holat va fantasmagoriyalar ana shu mifologik tasvirga bo‘lgan intilish natijasidir. Biroq, bu insonning mif shaklida tahlil qilish masalasining bir jihati. Uning boshqa bir tomoni ham borki, bu uslubga doir jihat. Mifologik tasavvur yoki mifologik ijod insonni makon, zamon ilohiyat tushunchalariga yaxlitlashtiradi”. [5.148] Darhaqiqat, ko‘pchilik mifologik asarlarda – mifologik qatlamning yangicha ifodasiga ko‘zimiz tushadi. Ayniqsa, N.Eshonqulning “Qora kitob” qissasida ham, “Tun panjaralari” asarida ham yangi zamon mifologiyasi orqali o‘tmishga, tarixga, yaqin o‘tgan zamonga munosabatli nutqning badiiy ifodasiga duch kelamiz. Aytish lozimki, insonning bu kabi o‘tmishdan, hayotiy aqidalaridan topgan mifologik talqinlar o‘z-o‘zini qayta kashf qilishga, yangi cho‘qqilarni zabt etishga imkon beradi. “Tun panjaralari”dagi tush motivi ham kompozision yaxlitlikni ta‘minlashga xizmat qilgan. Tush – yozuvchining o‘tmishi va kelajagini belgilab beruvchi asosiy kategoriya.

Prof D.Quronov badiiy asarning syujet va kompozisiyasidagi muhim jihatga to‘xatalar ekan, quyidagi masalalarga diqqat qaratadi: “Modomiki badiiy asar muloqot asosida

dunyoga kelar ekan, muloqot amalga oshayotgan situatsiya unga muayyan ta'sirini o'tkazadi, albatta. Ma'lumki, jonli so'zlashuv jarayonida aytilgan gap har vaqt ham so'zlovchining o'yidagini ifodalayvermaydi. Zero, ayrim hollarda so'zlovchi turli sabablarga ko'ra o'yidagini yashirish, munosabatini silliqdash, yumshatish zaruratini, ba'zan majburiyatini his etadi. Goho esa so'zlovchi davrada shunday gapirishi mumkinki, ko'pchilik uchun bir ma'noni anglatgan gaplar ayrimlarga butkul boshqa ma'noni yetkazadi. So'zlovchi ongli ravishda shu xil yo'l tanlaydiki, natijada ifodalamish va ifodalanmish munosabati o'zgaradi: ifodalanmish zohiriy va botiniy qatlamlarga ajraladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, birinchidan, so'zlovchi uchun botiniy ma'no muhimroq; ikkinchidan, u davradagi xos kishilarning o'sha ma'noni anglashlariga shubha qilmaydi, chunki ularning "kontekst"dan xabardor ekanliklarini juda yaxshi biladi". [6.105] N.Eshonqulning "Tun panjaralari" asaridagi qahramonlar o'z-o'zi bilan suhbatlashadi. O'zining botiniy qarashlaridagi, ya'ni tafakkur segmentlarini birinchi planga chiqaradi. Shunday vaziyatda mifologik qarashlar ham yangicha ma'no kasb etadi: folklor an'analar, azim qadriyatlar, milliy ong va tuyg'udagi evrilishlar shundan dalolat beradi.

"Kompozisiya birinchi navbatda shakl hodisasi bo'lib, asarga go'zal va jozibali tashqi ko'rinish beradi, mazmuni quyuq va ta'sirchan bo'lishiga, asarni qiziq va o'qimishli chiqishiga xizmat qiladi... kompozisiya odatda syujetdan kengroq tushuncha, Kompozisiya asar to'qimasidagi barcha unsurlarni o'z ichiga qamrab oladi...". [7.155] Darhaqiqat, badiiy kompozisiyaning ichiga keng va ko'p tarmoqli syujet chiziqlarini birlashtirish vazifasi kiradi. Unda yozuvchi g'oyasi ma'lum tartibda uyushganlik hosil qiladi. Ayniqsa, qissa badiiyatida ushbu jarayon teran idrok qilinadi. Ushbu atama mavjud andozalarni yangilashga ham sharoit yaratadi:

"Men hanuzgacha tushunolmayman. Shaytonning nimamga ishqiy tushgan ekan? Tunlarim "beorom" bo'lishimni aytmasa, boshqalardan hech ajarialib turgan joyim yo'q edi. Aksincha, tengdoshlarimning ichida eng omadsizi men edim. Aftidan, shaytonlarning bizning aqlimiz yetmaydigan o'z odatlari o'z qonuniyatlari bo'lsa kerak. Meni uni tashrifi hayratga solgani yo'q, men o'sha paytlari hech narsadan hayratlanmay qo'rgan, uning tashrifini hatto oldindan sezib yurganday ham edim; meni hayratga solgan narsa, xuddi Nitııye tasvirlagandek, sochining malla tusdaligi bo'ldi, u juda ham surbet hamda butun vujudidan, hatto ichak-chavog'idan ham shubha ufurib turardi; biroq e'tirof etish kerak, u juda aqlli va makkor edi. Ba'zan uning sochlarida oqish shu'la porlab ketardi. Boshqa bir kecha men Shayton bilan ularning qarorgohiga qarab ketar ekanman, ba'zan tun pardasini yirtib-yirtib, atrofimda shoxli va dumli shaytonlarning tantanovar raqs tushayotganini ko'rib qolganday bo'lardim, shunday lahzada men birdan dahshatga tushar, nazarimda tun qiyofasida meni qandaydir yovuzlik saltanati o'rab turganday bo'lardi". [4.164]

Yozuvchi juda katta bir falsafiy aqidani ilgari suradi. Insonning yovuzlik qarshisida hech narsa qilolmasligini, uning yo‘rig‘i tamomila boshqa narsa ekanligini anglab yetganligida ko‘rinadi. Chunki Shayton obrazini, portretini shu qadar o‘ziga yaqin olib tasvirlaydiki, unda odamlarning aqlu tafakkuri sira tushunib bo‘lmas kengliklar orasida yotganini his qiladi. Dunyo – yozuvchi tushunchasiga qaraganda SHAYTONning qo‘lida. Oxiratni unutkanlar, o‘z nafsini deb, boshqalarga kun bermaydigan, odam sanamaydigan odam qiyofasidagi Shaytonlardan ogoh bo‘lishga chaqiradi. Savol tug‘iladi: qahramon nega Shayton bilan do‘st tutindi? Undan hech qanday foyda yo‘q-ku? Bu yerda XX asr hayotining manzarasi qabarib ko‘rinmoqda. Adib sobiq ittifoq davrida olib borligan insoniy munosabatlarga tajovuz aslida odam qiyofasidagi Shaytonning ishi degan xulosani bermoqda. Negaki, inson ularni hech qachon inkor qilgan emas. Yovuzlik qarshisida ezgulikning hech qanday mohiyatga ega emasligini ko‘rsatishdan iborat. Zulm va zo‘ravonlik asosiga qurilgan sobiq ittifoq mafkurasi millatimiz kayfiyatiga, ruhiyatiga tabiiy yashash sharoitiga juda katta ta‘sir ko‘rsatdi. Bizning ota bobolarimizdan kelayotan ming yillik qadriyatlar ruslarning ta‘sirida kunpayakun bo‘lishi, sun‘iy e‘tiqod, dinsizlikni targ‘ib qilish haqida so‘z bormoqda. Adib ana shu muammolar qarshisida juda qayg‘uradi. Buning uchun kurashish lozimligini o‘z qahramonlariga tushuntiradi. Qissada o‘tgan zamondan kelayotgan asoratlar mavjud. Bu asoratlar hech kimni yodidan chiqqan emas. Shayton obrazi (statik) portret shaklida bo‘lib, uning makru hiylalari odamzoning boshiga sonsiz kulfatlarni yog‘dirganligini dalolatlaydi.

Hozirgi o‘zbek nasrida yozuvchi ongi va obrazini tipiklashtirish, ularning badiiy asar poetikasidan alohida bir muammo tarzida ajratib o‘rganish kam o‘rganilgan. Yevropa va rus adabiyotshunosligida bu borada ancha tadqiqotlar olib borilgan. [8., 9., 10.] Darvoqe, muallif badiiy tafakkur shakliga aylangunga qadar bosib o‘tilgan ijodiy uslub va mahoratda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ijodkor badiiy konsepsiyasi ong va tuyg‘u yaxlitligida yuzaga chiqadigan muhim masalalardan biri ekanligi ayonlashadi. Biz badiiy asarni o‘qiganimizda, muallif – roviy – hikoyachi obrazini emas, undagi voqelikka qiziqish natijasida muallifni yodimizdan ko‘taramiz. Aksincha, ularning hammasi, bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqelik muallif ongida ilk xamirturush sifatida yetiladi.

Xulosa. Qissa janrida mifopoetik talqin va uslub dinamikasi inson ruhiyatini teran ochishning samarali vositasiga aylangan. Nazar Eshonqulning “Tun panjaralari” qissasida tun, Shayton, tush kabi obraz va motivlar orqali insonning ichki iztiroblari, jamiyat bilan ziddiyati hamda o‘zligini anglash jarayoni ramziy qatlamda tasvirlanadi. Asarda kompozision yaxlitlik ichki monolog, psixologik tahlil va metaforik tasvir vositalari bilan ta‘minlanadi.

Mifologik tafakkur zamonaviy ruhiy talqin bilan uyg‘unlashib, yangi estetik sifat kasb etadi. Tun obrazi faqat fon emas, balki qahramon ongining ichki makoni sifatida namoyon bo‘ladi. Shayton timsoli esa shaxsiy fojea va ijtimoiy ziddiyatlarning ramziy

ifodasiga aylanadi. Statik va dinamik portret unsurlari orqali obrazlarning ichki va tashqi qiyofasi uyg'unlashtiriladi.

Qissa poetikasida G'arb modernistik adabiyotining ta'siri sezilsa-da, asar milliy ruh va tarixiy xotira bilan sug'orilgan. Mifopoetik talqin yozuvchiga voqelikni bevosita emas, balki ramzlar orqali chuqurroq ifodalash imkonini beradi. Natijada uslubiy yangilanish, badiiy tafakkurning kengayishi va inson mohiyatini anglashga intilish qissa janrining zamonaviy taraqqiyot yo'nalishini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Франц Кафка. Эврилиш. –Т.: “Янги аср авлоди”. 2021.
2. Қўчқорова М. Ҳозирги ўзбек насрида бадий шартлилик. Филол.фан.док.дисс. –Т: 2020.
3. Қуронон Д., ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. –Т.: “Академнашр”. 2010.
4. Эшонқул Н. Ялпиз хиди. –Т.: “Шарқ”. 2008.
5. Эшонқулон Ж. Фольклор: образ ва талқин. –Қарши. 1999.
6. Қуронон Д. Чўлпон насри поэтикаси. –Т.: “Шарқ”. 2004. –Б.105.
7. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Т.: “Ўзбекистон”. 2002.
8. Эшонқул Н. Ялпиз хиди. –Т.: “Шарқ” 2008. –Б.164.
9. Виноградов В.В. Проблема авторства и теория стилей. М., 1961.
10. Козьмин В.Ф. Автор и образ повествователя в романах и циклах. Филологический науки. 1977.
11. Тимофеев Л. И. Советская литература. Метод, стиль, поэтика.М. 1964.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934